

2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


So'nggi yigirma yil mobaynida jahon iqtisodiyotining tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasida jadal o'sish kuzatilmoqda. Bu ishlab chiqarishning murakkabligi, bozorni yangi mahsulotlar bilan to'yinganligi, innovatsion texnologiyalarning jadal o'sishiga bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

2019-yil 1-may holatiga ko'ra viloyatimizda 13,4 mingta korxona va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida (20,8 ming birlik) 64,8 % ni tashkil etadi. Ularning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 23,7 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-may holatida xizmatlar sohasida 10,9 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 32,8 %, tashish va saqlash - 10,0 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,4 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,1 %, axborot va aloqa - 1,8 %, boshqa turlarda - 41,9 % korxona va tashkilotlar o'rinn egallagan.

**2019-yil 1-may holatiga korxona va tashkilotlarning
umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotganlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi (36,3 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 9,4 % ga yetdi.

2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Sog'lijni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar ulushi 3,9 % ga teng bo'ldi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.


Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2,6 mingtaga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxona va tashkilotlarda qayd etildi. U 36,8 % ni tashkil qildi, ularning soni 1,3 mingtaga ko'paydi. 2019-yil 1-may holatiga ko'ra ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1,1 mingtaga yetdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sishi (45,0 %) kuzatilmoxda, ularning soni 0,5 mingtaga oshdi.

Sog'lijni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'sishi (0,1 mingtaga), ularning o'sishiga (18,3 %) ta'sir ko'rsatdi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 411,7 mlrd. so'mga oshib, 2289,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil etdi.



(dastlabki ma'lumot)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida savdo xizmatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 32,3 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan hajmi 108,3 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Bundan tashqari, eng katta ulush transport xizmatlari, moliya, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim sohasidagi xizmatlar, shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatiladi.

**2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2289054,9	112,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	114063,1	104,5
Moliyaviy xizmatlar	304976,6	173,9
Transport xizmatlari	570510,0	104,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	520080,1	101,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	99619,2	106,9
Savdo xizmatlari	738305,1	103,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62238,0	104,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	112279,7	146,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	41884,6	108,9
Ijara xizmatlari	60493,6	100,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	50790,6	103,5
Shaxsiy xizmatlar	47837,0	102,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	26708,1	117,3
Boshqa xizmatlar	59349,3	103,1

Viloyatimizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 173,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (146,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (117,3 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (106,9 %), qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



(dastlabki ma'lumot)


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rincini tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 738,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 108,3 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 79,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,5 % ga yetdi.

(dastlabki ma'lumot)

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosiga, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 6,6 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahri (264,2 mlrd. so'm), G'ijduvon (125,1 mlrd. so'm), Buxoro (44,0 mlrd. so'm), Vobkent (41,5 mlrd. so'm) tumanlari va Kogon shaharlarida (40,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi



Buxoro shahri	264,2 mlrd.so'm
Kogon shahri	40,1 mlrd.so'm
Olot tumani	30,9 mlrd.so'm
Buxoro tumani	44,0 mlrd.so'm
Vobkent tumani	41,5 mlrd.so'm
G'ijduvon tumani	125,1 mlrd.so'm
Kogon tumani	15,1 mlrd.so'm
Qorako'l tumani	33,4 mlrd.so'm
Qorovulbozor tumani	11,5 mlrd.so'm
Peshko'tumani	31,7 mlrd.so'm
Romitan tumani	38,7 mlrd.so'm
Jondor tumani	32,3 mlrd.so'm
Shofirkon tumani	29,8 mlrd.so'm

Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu tumandagi savdo xizmatlari hajmi 11,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 305,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 173,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (90,2 %) katta salmoqqa egadir.

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 112,3 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 46,9 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar orasida Buxoro shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 76,1 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu yerda joylashganligidir. Buxoro shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 85,5 mlrd. so'mga yetdi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmining taqqoslanishi



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahrida - 159,2 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Romitan (188,3 %), Buxoro (163,9 %), va Qorako'l tumanlarida (130,6 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari




Eng past o'sish sur'atlari Shofirkon tumanlarida - 101,8 % qayd etildi.

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 6,9 % ga o'sdi, hajmi esa 18,2 mlrd. so'mga oshdi va 99,6 mlrd. so'mga yetdi.

(dastlabki ma'lumot)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 87,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Buxoro shahrida - 65,7 mlrd. so'm qayd etildi. Eng kichik hajm esa Peshko' tumanlarida kuzatildi - 0,8 mlrd. so'm.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2019-yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 41,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Qorovulbozor tumanida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmidagi ulushi eng kichik (0,5 %) bo'lishiga qaramasdan, ularning o'sishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati



2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2289054,9	112,4
Buxoro shahri	1397804,0	115,2
Kogon shahri	75734,2	106,6
tumanlar:		
Olot	56478,6	107,7
Buxoro	79873,9	109,0
Vobkent	77218,7	110,8
G'ijduvon	208356,0	109,2
Kogon	37158,9	110,7
Qorako'l	66254,5	106,8
Qorovulbozor	46404,7	95,5
Peshko'	53668,9	110,4
Romitan	75134,9	109,1
Jondor	59620,1	111,3
Shofirkon	55347,5	108,4


(dastlabki ma'lumot)

Mamlakatimizda hududlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida (1397,8 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Jondor (111,3 %), Vobkent (110,8 %), Kogon (110,7 %) va Peshko' tumanlarida (110,4 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qorovulbozor tumani (95,5 %), Kogon shahri (106,6 %) va Qorako'l (106,8 %) tumanlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %



Shahar va tumanlar bo'yicha xizmatlarning umumi hajmida eng yuqori ulushlarni Buxoro shahri (61,1 %), Gʼijduvon (9,1 %), Buxoro (3,5 %), Vobkent (3,4 %) tumanlari va Kogon shahri (3,3 %) egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kichik ulushlar Kogon (1,6 %), Qorovulbozor (2,0 %), Peshko' (2,3 %), Shofirkon (2,4 %) va Olot tumanlariga (2,5 %) to'g'ri keladi.

Buxoro viloyati xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
65-223-79-41